

Date: 19th November-2024

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MOTIVATSIYANI
KUCHAYTIRUVCHI PSIXOLOGIK MASHG‘ULOTLAR**

Sharapova Dildora Baxtiyorovna

International school of finance and technology science instituti o‘qituvchisi
Psixologiya fanlar bo‘yicha falsafa do‘tiri (PhD), sharopovad@isft.uz

Setora Kattabekova Farxod qizi

International school of finance and technology science instituti, Boshlang‘ich ta‘lim
yo‘nalishi, 24-BT-01 guruh talabasi, setorakattabekova09@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida motivatsiyani oshiruvchi psixologik mashg‘ulotlarning zarurati va motivatsiya berishning turli uslublari bayon etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars mashg‘ulotlarida motivatsiya berish ularning fanga qiziqishini oshirish barobarida ularning kelajakka umidi va o‘ziga bo‘lgan ishinchini oshiradi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, motivatsion rag‘batlantirish, ta‘lim jarayoni, jamoa, qobiliyat, o‘z-o‘zini anglash.

Анотация: В данной статье описывается необходимость психологических упражнений, повышающих мотивацию у учащихся младших классов, и различные методы мотивации. Мотивация младших школьников во время уроков повышает их интерес к науке, увеличивает надежду на будущее и уверенность в себе.

Ключевые слова: мотивация, мотивационное стимулирование, образовательный процесс, коллектив, способности, самосознание.

Annotation. This article describes the need for psychological exercises that increase motivation in primary school students and various motivation methods. Motivating primary school students during lessons increases their interest in science, increases hope for the future and self-confidence.

Key words: motivation, motivational stimulation, educational process, team, abilities, self-awareness.

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida motivatsiyani oshirish ta‘lim jarayonining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Bolalar o‘rganishga qiziqish, o‘z imkoniyatlariga ishonch va dars mashg‘ulotida faol qatnashishga tayyor bo‘lishlari uchun ham ular motivatsiyaga muhtoj. O‘quvchilarda psixologik mashg‘ulotlar orqali ularni rag‘batlantirish va motivatsiyalarini oshirish mumkin. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun motivatsiyani kuchaytiruvchi bir qator psixologik mashg‘ulotlar taqdim etiladi. O‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini anglashlariga yordam berish uchun “Men kimman?” nomli mashg‘ulotni tashkil etish ham mumkin. Bunda har bir o‘quvchi o‘zining kuchli tomonlari, qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlarini yozadilar va bir-birlariga bu haqda aytishadi. Ushbu metod ularning o‘zaro aloqalarini mustahkamlaydi va qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi. O‘qituvchilar ushbu jarayonni muhokama



Date: 19th November-2024

qilganda, bolalarga o'zlarini qadrlashlariga yordam berishi va o'zlariga ishonchlarini oshirishiga imkoniyat yaratadi.

O'z-o'ziga motivatsiya berishning bir qator nazariyalari mavjud va mazkur yondoshuvlar o'quvchilarga qanday rag'batlantirish mumkinligini tushuntiradi [1, 227-268]. Motivatsiyani kuchaytirishda jamoaviy faoliyatning ham o'rni beqiyos. "Jamoaviy vazifalar" metodi orqali bolalar kichik guruhlariga bo'linadi va ularga umumiy vazifa beriladi. Bu vazifalar turli mavzularda bo'lishi mumkin, jumladan, san'at, til o'rganish, ilmiy tadqiqot va boshqa shu kabilar bo'lishi mumkin. O'quvchilar birgalikda ish olib borish orqali hamkorlik qilishga, o'zaro fikr almashishga, raqobatni kuchaytirishga undaydilar. Mazkur uslub o'rganishda jamoaviy ishlashning ahamiyatini ko'rsatish barobarida bolalar uchun qo'shimcha motivatsiya beradi.

O'yinlar orqali motivatsiya beris bolalarning qiziqishini oshirishi mumkin. "Savol-javob" o'yinlarida o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadilar. Savollarning turli darajalarda bo'lishi, bolalar uchun qiziqarli va chalg'ituvchi muhit yaratadi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar javob berish uchun raqobatlashadi, bu esa motivatsiyani oshirib, boshqa o'quvchilar bilan aloqalarni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, hissiy qo'llab-quvvatlash ham motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun o'zgarishlarga ochiqlik va fikr tarzining ahamiyati beqiyos [2]. "Ijobiy fikrlar" mashg'uloti orqali o'quvchilar o'zaro ijobiy fikr almashadilar. Har bir bola o'z guruhidagi boshqa bolaga ijobiy fikr yoki maslahat beradi. Bunda o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, jamoaviy muhitda ko'proq ishtirok etish rag'batlantiriladi. O'quvchilar sevgi va qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini his qilib, ulardagi motivatsiya yanada kuchayadi. Shuningdek, o'quvchilar o'zlarini, o'z hissiyotlarini anglashga yordam beradigan mashg'ulotlar ham muhimdir. Mazkur vazifani bajarishda mashg'ulotlar tarkibiga "Men his qilyapman" nomli metodni kiritish ham mumkin. Mashg'ulotda bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalashlariga yordam beruvchi ochiq muloqot orqali o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydilar. Bu esa o'quvchilarning hissiy salomatligini rivojlantirishga, stressni boshqarishga va o'z nazariyalarini anglashga qaratilgan.

Adabiyotlarda o'quvchilarga samarali xabarlarini taqdim etish va ta'lim jarayonida motivatsiyani oshirish haqida tavsiyalar beriladi [3, 81-112]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun motivatsiyani oshirishga qaratilgan yangi va o'ziga xos usullar hamda mashg'ulotlar ta'lim jarayoniga yanada yangi yondashuvlarni kiritishga imkon beradi. Mazkur metodlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. "O'qishni o'zgartirish" metodi. Mazkur mashg'ulot o'quvchilarni kitob va hikoyalar bilan bilvosita tanishtirish uchun qiziqarli usuldir. O'quvchilardan mashhur ertaklar yoki hikoyalarni tanlab olishlari so'raladi. So'ng ularni yangi va hayratlanarli tafsilotlar bilan yangilab, qayta yetkaziladi. Masalan, "Qizil qalpoqcha" hikoyasining oxirini o'zgartirganda nimalar bo'lishi mumkinligini aytishlari mumkin. Bu o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi va o'rganishga qiziqishlarini oshiradi.



Date: 19th November-2024

2. **“Emotsional karta” metodi.** O‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash uchun emotsional kartadan foydalanish taklif etiladi. Har bir bola o‘zining his-tuyg‘ularini ifodalovchi har xil ranglar va shakllarga asoslangan emotsional karta tayyorlaydi. Ushbu mashg‘ulot davomida bolalar o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va bir-birlari bilan bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda va hissiy farovonlikni oshirishda yordam beradi.

3. **“Mini olimpiada” metodi.** Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar turli fanlar, sport yoki ijodiy ko‘nikmalar bo‘yicha mini olimpiadalar o‘tkazishni rejalashtiradilar. Ular jamoa shaklida yoki yolg‘iz ishtirok etadilar. Bu jarayonda motivatsiya oshadi, chunki har bir bola o‘zining yaxshilangani, yangi ko‘nikmalar o‘rganganini va jamoasiga qo‘shadigan hissasini anglaydi.

4. **“Mening qahramonim” metodi.** Mazkur mashg‘ulotning maqsadi bolalarga o‘z hayotidagi qahramonlarni tan olishga yordam berishdir. Ular o‘zlarining sevimli qahramonlari, yaqinlari yoki tarixiy shaxslar haqida hikoya qiladilar. Har bir bola, o‘z qahramonining hayotidagi qoyilmaqom xususiyatlarini ifodalovchi plakat tayyorlaydi. Ushbu faoliyat bolalar hissiyotlarini rivojlantirish va ilhomlantiruvchi hikoyalar orqali motivatsiyalarini oshirishga yordam beradi.

5. **“Hayotiy masalalar” metodi.** O‘quvchilar hayotiy masalalarga duch kelishlarini va ularga yechim topishlarini talab qiladigan vazifalar berish mumkin. Bu mashg‘ulotda o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarga nisbatan o‘z fikrlarini bildiradilar, muammolarni hal qilishga harakat qiladilar va bir-biriga yordam berishadi. Ushbu jarayon bolalarga ularga yangicha yondashuvlarni rivojlantiradi va mas‘uliyatni oshiradi.

6. **“Qo‘shiq va raqs terapiyasi” metodi.** Musiqa va raqs orqali bolalarning hissiy holatini yaxshilashga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. O‘quvchilarga o‘zlarining sevimli qo‘shiqlarini tanlashni va ularga raqs tushishni taklif etiladi. Keyinchalik, har bir bola qo‘shiq haqida fikr yuritadi, bu esa ijodiylik va muloqotni rivojlantiradi. Mashg‘ulotning bu turi bolalarga stressni kamaytirishga va ijobiy energiya to‘plashlariga yordam beradi.

7. **“Tabiat tadqiqotchilari” metodi.** Ushbu metodda bolalar tabiatga chiqarilib, ularni faoliyatga jalb qilinadi. Bunda ikki hil usuldan foydalanish mumkin, birinchidan, “Tabiatni tadqiq qilish” usuli orqali o‘quvchilar tabiatga chiqqach ularga o‘simliklar, hayvonlar va atrof-muhitni kuzatishlari taklif qilinadi. Har bitta bola o‘z topganlari haqida yozma yoki og‘zaki ravishda ma‘lumot beradi. Ikkinchidan, “Qiziqarli ma‘lumotlar” usuli o‘quvchilarga qiziqarli ma‘lumotlar berish orqali tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Ushbu mashg‘ulotlar bolalarda tabiatni sevish, uning go‘zalligini anglash va atrof-muhitni asrashga kabi motivatsiyani tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan yangi va original yondashuvlar ta‘lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Ta‘lim jarayoniga o‘quvchilarning hissiyotlari, ijodkorliklari va tajribalari asosida yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni kiritish, ularda



Date: 19th November-2024

o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar ushbu yondashuvlarni qo'llagan holda, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). "The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior". *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.
2. Dweck, C. S. (2006). "Mindset: The New Psychology of Success". Random House.
3. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). "The Power of Feedback" *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.
4. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo'llari, usullari va vositalari. *Scientific Impulse*, 1(4), 328-333.
5. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. *Scientific Impulse*, 1(3), 385-388.
6. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo o'g'li, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. *Scientific Impulse*, 1(3), 439-443.
7. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. К. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
8. Ziyat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. *Scientific Impulse*, 1(8), 857-860.

